

MUAMMOLI-MODULLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH.

Xojiev Xayrulla G'ulomqodirovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar
universitetining Toshkent filiali assistenti.*

Аннотатсия

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishda muammoli modulli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari ushbu maqolada muammoli-modulli texnologiyaning tuzilmasi va mazmuni bayon etilgan.

Kalit so'zlar: muammoli modulli texnologiya, tanqidiy fikrlash, o'quv jarayonini loyihalash, didaktik materiallar, ziddiyatli ta'lim.

Аннотатсия

В данной статье представлена информация об использовании проблемных модульных технологий при организации образовательного процесса в высших учебных заведениях. Кроме того, в данной статье описывается структура и содержание проблемно-модульной технологии.

Ключевые слова: проблемно-модульная технология, критическое мышление, проектирование учебного процесса, дидактические материалы, противоречивое образование.

1. Dolzarblik

Biror narsani anglash har doim insonning o'zi tomonidan amalga oshiriladi. Uning uchun bu ishni hech kim qila olmaydi. Bilimlarni individual tarzda qidirish talabaning o'quv ishining mohiyati bo'lib, butun o'quv jarayoni samarali tashkil etilgan mustaqil ish hisoblanadi.

Hozirgi zamon axborot almashinuvi davrida o'qituvchi o'quvchiga birlamchi axborot beruvchi man'ba emas, balki u vositachiga aylanadi. Bunda ta'lim beruvchi talabaga katta hajmdagi axborotni olish va o'zlashtirishni osonlashtiradigan hamda uni amalda qo'llashni tushunishga yordam beradigan yo'l ko'rsatuvchi sifatida foaliyat olib boradi.

Shunga ko'ra, o'quv boshqaruv jarayoni o'zgarishi kerak. Ta'lim beruvchi to'liq ma'lumot beruvchi o'qituvchidan tegishli ma'lumotlar bazasiga yo'l ko'rsatuvchi yo'riqchiga aylanishi lozim. Muammoli modulli o'qitish va boshqa o'qitish

tizimlarining tub farqi shundaki, o'qitish mazmuni to'liq, mustaqil majmualar-modullarda taqdim etiladi.

Bu majmualar bir vaqtning o'zida axborotlar banki, muammoli vazifalarni belgilash usuli va muammoli-modulli kursning nazorat pozitsiyalarini ishlab chiqish uchun uslubiy qo'llanma hisoblanadi.

Bunday mazmun o'quvchilarga o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil shakllantirish, yangi bilim va amaliy muammolarni hal etishda, ularni tayyor holda qabul qilmasdan amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

2. Muammoli-modulli kursning tuzilmasi

Yo'nalishlar kesimidagi malaka talablari mazmunida talaba egallashi lozim bo'lgan o'ziga xos bilim, ko'nikma hamda malakalarni aks ettiradi.

Biror bir kurs yoki modul bo'yicha muammoli-modulli ta'lim texnologiyasi loyihasini ishlab chiqishda mavzuning eng asosiy va dolzarb masalari hisobga olinishi lozim bo'ladi. Aslida modul fanning bir bobi yoki bo'limi bo'lishi mumkin. Mutaxassislikka oid o'quv dasturi orqali muammoli-modulli kursni ishlab chiqishda, fanga yoki soha dolzarb masalalar va mavzular tanlanadi. Ular birgalikda muammo-funksional tugunlarni ifodalaydi.

Muammoli-modulli texnologiyani ishlab chiqishning bosqichlari:

- O'rganilayotgan mavzu bo'yicha eng asosiy ilmiy ma'lumotlar hamda tushunchalarni ajratib olish.
- Muammoli –modulli texnologiya asosida o'rganilayotgan mavzuning eng asosiydan barcha elementlarini o'rgangunga qadar bo'ladigan blok sexemasini tuzish.
- Modul asosida talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar ro'yxatini yozish.
- Har bir modulning mazmunini tahlil qilish va talabalarning ilgari o'zlashtirilgan bilimlardan foydalangan holda o'quv materiallarini o'rganishga tayyorligini ta'minlash.
- Talabalarga modulning qaysi etapiga kelganligini aks ettiruvchi sxema tuzish va vazifalar ketma-ketligini raqamlash


Bundan tashqari, o'quvchining muammo-modulli kurs bilan ishlash boshida bo'lishi lozim bo'lgan asosiy tayyorligi aniqlanadi. Asosiy tayyorlikning diagnostik testi shakllantiriladi.

Kurs bo'yicha erishilgan natijalarni o'rganish uchun talabalarning faoliyati kuzatiladi, ular bilan so'rovnomalar tashkil etiladi, og'zaki hamda yozma nazorat ishlari olindi.

3. Muammoli-modulli dars qurilmasi

Modul-o'quv materialining mantiqan tugallangan bloki. Unda maqsad va o'quv vazifasi, metodik tavsiyalar, harakatlar uchun indikativ asos va o'qitishning nazorat (o'z-o'zini nazorat qilish) vositalari tavsifi keltirilgan. Modulning minemal o'quv birligi modul elementi hisoblanadi.

Modul tuzilmasini 3 tarmoqqa bo'lish mumkin. U quyidagicha bo'ladi:



Modulning tushincha –ma'lumot berish qismi didaktik materiallar asosida amalga oshirildi

Didaktik materiallar o'z ichiga o'quv adabiyotlari, rasmlar, video va audio materiallar, diagrammalar, testlar, o'z-o'zini nazorat qilish uchun savollarni oladi.

4. Muammoli vaziyat

Talaba uchun tayyorlangan muammoli vaziyat juda murakkab va talabaning bilim darajasi yetmaydigan bo'lishi mumkin emas. Bu uning modulni o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyasini o'ldirib qo'yishi mumkin. Bundan tashqari modul talaba uchun zerkarli bo'lmasligi lozim.

Ta'lim muammosiga qo'yiladigan talablar:

- * Ta'lim muammosi o'quv materialini taqdim yetish bilan bog'liq bo'lishi va undan mantiqan amal qilishi lozim.
- * Ziddiyatli axborot ta'lim muammosi bilan bog'liq savol, vazifa yoki amaliy vaziyatni tuzishda o'z aksini topishi kerak.
- * Muammoning mazmuni uni hal yetish yo'nalishi va yo'lini ko'rsatishi kerak.
- * Muammoni hal qilish talabalar uchun mumkin bo'lishi kerak, lekin juda oson yemas.
- * Muammoni nutqiy shakllantirish talabaga ma'lum bo'lgan tushunchalarni o'z ichiga olgan jumladan iborat bo'lishi, jumladan yesa muammoning o'zida noma'lum bilan aloqasi bo'lgan yelementlar bo'lishi kerak.

* Muammoli masalalar, o‘quv amaliy vazifalar, muammolarni qo‘yishda berilgan hayotiy misollar talabaga yemotsional ta’sir ko‘rsatishi, uni faol bo‘lishga undashi kerak.

Muammoning taqdimoti

Muammoli vaziyat taklif etiladi. So‘ngra axborot va asoslantirilgan material ishtirok yetib, unda talaba muammoli masala yechimini topadi. Ma’lum bilimlar qanday olinganligini ko‘rsatish, ularning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan sabablarni tushuntirish mumkin.

Xulosa

Muammoli-modulli texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash orqali quyidagi ko‘rsatgichlarga ega bo‘lish mumkin:

- ta’lim samaradorligi oshadi;
- ta’lim oluvchilarning bilimni olishga bo‘lgan motivatsiyasi oshadi;
- ta’lim oluvchilarda muammoni mustaqil ravishda hal qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar;
- tinglovchilarda mustaqil ravishda mavzuga mos kontentlar izlab topish kompetensiyasi yanada rivojlanadi.

Har qanday ta’lim muassasasida eng avvalo ta’limiy natijaga erishish muhim omil hisoblanadi. Bunda ta’lim oluvchi o‘rganayotgan sohasini mukammal egallashi, olgan bilimi malaka talablariga javob beradi. Bundan tashqari muammoli-modulli ta’lim texnologiyasi orqali fan va ishlab chiqarish integratsiyasini bog‘lagan holda dual ta’lim shaklida jarayonni yo‘lga qo‘yish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismailova Z.Q., Raupova Sh.A “Muammoli ta’lim texnologiyalarining ta’lim texnologiyalarining o‘rni” Obщestvo s ogranichennoy otvetstvennostyu s uchastiem inostrannogo kapitala "E-LINEPRESS"(Tashkent)ISSN: 2181-8584
2. Kavelin L. “Problemno-modulnaya texnologiya” Uchebnik, “Mikroshkola” Moskva 2007g.
3. Grigoryan M. B. Problemno-modulnaya texnologiya kak sredstvo organizatsii obrazovatel'nogo protsessa [Tekst] / M. B. Grigoryan, G. P. Mesheryakova // Vestnik universiteta (GUU). - 2008. - 2 (40). -S. 44-47. (0,3 p.l.).
4. Grigoryan M. B. Psixologo-pedagogicheskie aspekty problemno-modulnoy texnologii [Tekst] / M. B. Grigoryan // Vestnik universiteta (GUU). – 2008. - № 10 (48). - S. 54-55. (0,2 p.l.).